

QADIMGI SAVDO YO‘LLARI: TARIX VA RIVOJLANISH

Hasanboyev To‘raqul Foziljon o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti o‘qituvchisi,

Eshqobilova Fazilat Fazliddin qizi*Jizzax davlat pedagogika universiteti**Tarix fakulteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi karvon yo‘llarining shakllanishi, ularning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishdagi roli hamda Buyuk Ipak yo‘lining Markaziy Osiyo va Sharq-G‘arb munosabatlaridagi ahamiyati yoritilgan. Karvon yo‘llari orqali nafaqat tovarlar, balki ilm-fan, madaniyat va diplomatik aloqalar ham almashilganligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada Buyuk Ipak yo‘lining tarixiy merosi, uning zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va xalqaro dasturlardagi o‘rni ham muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Qadimgi karvon yo‘llari, Buyuk Ipak yo‘li, Markaziy Osiyo va savdo yo‘llari, sug‘d savdogarlari, madaniy almashinuv, diplomatik aloqalar, shaharlar taraqqiyoti, tarixiy meros, La‘l yo‘li, Shoh yo‘li, ilm-fan almashuvi.

Insoniyat tarixida savdo va almashinuv jarayoni jamiyatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. Qadimgi karvon yo‘llari, xususan Buyuk Ipak Yo‘li, nafaqat tovarlar, balki ilm-fan, madaniyat va g‘oyalar almashinuviga xizmat qilgan. Ushbu yo‘llar orqali Sharq va G‘arb xalqlari o‘rtasida mustahkam iqtisodiy va madaniy aloqalar shakllangan.

Qadimgi karvon yo‘llari insoniyat tarixida nafaqat savdo-sotiq jarayonlarida, balki siyosiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarning rivojlanishida ham muhim rol o‘ynagan. Ularning shakllanishi turli iqtisodiy, tabiiy va geografik omillarga bog‘liq bo‘lgan. Turli mamlakatlar o‘rtasidagi foydali savdo munosabatlari, tog‘larda qazib

olingan yarim qimmatbaho toshlar — lazurit, nefrit, aqiq — va suv havzalari bo'yidagi shaharlar qadimgi yo'llarning barpo bo'lishiga turtki bergan[3].

Miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda ochilgan La'l yo'li Pomir tog'laridan boshlanib, Eron, Mesopotamiya va Misr orqali o'tgan. Ushbu yo'l orqali la'l toshlaridan yasalgan buyumlar Misr fir'avnlarning ehromlaridan topilgan. Lojuvard konlari Pomir va Tog'li Badaxshon hududida joylashgan bo'lib, O'rta Osiyo makonlaridagi arxeologik topilmalar yo'lining mahalliy tarmoqlar mavjudligini ko'rsatadi[1].

Shoh yo'li miloddan avvalgi VI asr oxirida Eron shohi Doro I tomonidan tashkil qilingan bo'lib, ikki yo'nalishli bo'lgan. Birinchi yo'nalish O'rtayer dengizi shaharlarini Eron bilan bog'lagan bo'lsa, ikkinchi yo'nalish Eron va Baqtriya orqali Oltoy va Hindistonga yetgan. Yo'l bo'yida karvonsaroylar, bekatlar va otliq soqchilar joylashtirilgan bo'lib, ular karvonlarni himoya qilish va pochta-aloqa xizmatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan.

Buyuk Ipak yo'li esa miloddan avvalgi III asr oxiridan II asrlarda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan savdo-tranzit yo'li sifatida shakllangan. Nemis geograf olimi Ferdinand Paul Vilgelm Rixtgofen 1877 yilda uni "Ipak yo'li" deb nomlagan va keyinchalik butun dunyo tarixshunoslari tomonidan "Buyuk Ipak yo'li" sifatida e'tirof etilgan[4]. Dastlabki tarmog'i Xitoyning Sian shahridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron va Mesopotamiya orqali O'rta Yer dengizigacha cho'zilgan.

Xan imperiyasi hukmdori U-di (miloddan avvalgi 140–87 yillar) davrida Xitoyning g'arbiy hududlariga bo'lgan qiziqishi kuchaygan. Xunlar bilan yuzaga kelgan harbiy tahdidga qarshi kurashda ittifoqchilar topish maqsadida imperator U-Di diplomat va savdogar Chjan Syan (miloddan avvalgi 138–126 yillar)ni O'rta Osiyoga yuboradi. Chjan Syan Farg'ona vodiysi, Parfiya, Baqtriya va boshqa hududlarda elchilik missiyasini amalga oshirib, Sharq va G'arb o'rtasida diplomatik va savdo aloqalarini yo'lga qo'yishda muhim hissa qo'shadi[6]. Shu tariqa, miloddan avvalgi II–I asrlarda Buyuk Ipak yo'lining dastlabki tarmoqlari shakllangan.

Yo'lining dastlab ikki asosiy yo'nalishi — janubiy va shimoliy — mavjud bo'lib, milodiy asrlarning boshlanishida ularga boshqa tarmoqlar ham qo'shilgan. Umumiy uzunligi taxminan 12 ming kilometr bo'lgan yo'l orqali turli xalqlar o'rtasida iqtisodiy, madaniy va ilmiy almashinuv amalga oshgan. Sharq va G'arb sivilizatsiyalarini bog'lab, xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga zamin yaratgan[5].

III–VII asrlarda O'rta Osiyo va O'rta Sharq orqali o'tgan Ipak yo'lining nazorati sug'dlar qo'lida bo'lgan bo'lsa, VIII asr o'rtalariga kelib, uning g'arbiy qismi arablar nazoratiga o'tgan. Yo'l orqali ipak, qimmatbaho toshlar, xushbo'y atirlar, paxta matolari, qurol-yarog'lar, diniy va ilmiy g'oyalar almashilgan. Sug'd savdogarlari va karvonchilar O'rta Osiyo shaharlarining iqtisodiy rivojida muhim rol o'ynagan. Podshohlar o'zaro elchilar yuborishgan, sovg'alar in'om etishgan va Sharq bilan G'arb madaniy almashinuvi kuchaygan[2].

Hozirgi kunda Buyuk Ipak yo'lining tarixiy merosini tiklash bo'yicha keng ko'lamli xalqaro dasturlar amalga oshirilmoqda. 1987 yilda YUNESKO "Ipak yo'li – muloqot yo'li" xalqaro dasturini qabul qilgan bo'lib, bu dastur O'rta Osiyo xalqlarining boy madaniy tarixini o'rganish va Sharq bilan G'arb o'rtasida mustahkam madaniy va iqtisodiy aloqalar o'rnatishga qaratilgan. Samarqand, Buxoro va boshqa tarixiy shaharlarda xalqaro konferensiyalar, ekspeditsiyalar va ilmiy tadqiqotlar tashkil etilgan, Hindiston, Xitoy, O'zbekiston va Yaponiya kabi davlatlarda maxsus ilmiy institutlar ochilgan[6].

Xulosa qiladigan bo'lsak, qadimgi karvon yo'llari insoniyatning iqtisodiy, madaniy va siyosiy rivojlanishida beqiyos ahamiyat kasb etgan. Ular miloddan avvalgi davrlardan boshlab rivojlanib, Buyuk Ipak yo'li kabi xalqaro savdo yo'llarining shakllanishiga zamin yaratgan. Karvonsaroylar qurilishi, iqtisodiy va madaniy almashuvning kuchayishi, Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasidagi diplomatik aloqalar qadimgi yo'llarning ahamiyatini oshirgan. Hozirgi transport vositalari karvon yo'llarining amaliy ahamiyatini kamaytirgan bo'lsa-da, ular tarixiy-madaniy meros sifatida saqlanib qolgan va xalqaro ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Ahmadali Asqarov. ***O'zbekiston tarixi (Eng qadimgi davrlardan eramizning V-asrigacha)***. Toshkent. 2005. 97-bet.
- 2.A.S. Sagdullayev. ***O'zbekiston tarixi, I-kitob***. Toshkent. Vneshinvestprom. 2019. 567-bet.
- 3.Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov. ***Vatan tarixi, I-kitob***. Toshkent. Sharq Nashriyot-Matbaa. 2010. 90-bet.
- 4.N.U. Musayev. ***O'zbekiston davlatchiligi tarixi: Yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar***. Toshkent. Akademiya. 2010. 83-bet.
5. www.wikipedia.uz. internet sayti.
6. www.ziyouz.com kutubxonasi.